

YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYADA "MIRANDA QOIDASI" INSTITUTINING MUSTAHKAMLANISHI

*Sobirova Ruxshona Otobek qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti
Xususiy huquq fakulteti 2-bosqich talabasi*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida "Miranda qoidasi" institutining mustahkamlanishi, uning mazmun-mohiyati, xalqaro huquqiy standartlar bilan uyg‘unligi, shuningdek, mazkur institutning fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklarini ta’minlashdagi roli yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Miranda qoidasi, konstitutsiyaviy huquq, shaxs erkinligi, tergov jarayoni, xalqaro tajriba, huquqiy kafolatlar.

THE ENSHRINEMENT OF THE "MIRANDA RULE" IN THE NEWLY REVISED CONSTITUTION

Annotation

This article explores the incorporation of the "Miranda rule" into the newly revised Constitution of the Republic of Uzbekistan, its essence, compatibility with international legal standards, and the role this institution plays in ensuring citizens' personal rights and freedoms.

Keywords: Miranda rule, constitutional law, personal freedom, investigation process, international practice, legal safeguards.

ЗАКРЕПЛЕНИЕ ИНСТИТУТА «ПРАВИЛА МИРАНДЫ» В НОВОЙ РЕДАКЦИИ КОНСТИТУЦИИ

Аннотация

В данной статье рассматривается закрепление института «правила Миранды» в новой редакции Конституции Республики Узбекистан, его суть, соответствие международным правовым стандартам, а также роль данного института в обеспечении личных прав и свобод граждан.

Ключевые слова: правило Миранды, конституционное право, личная свобода, следственный процесс, международная практика, правовые гарантии.

Kirish. Inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish demokratik davlatning eng muhim mezonlaridan biridir. Har qanday jamiyatda shaxsning sha’ni, qadr-qimmati, erkinligi va huquqlari oliy qadriyat sifatida e’tirof etilishi lozim.

Ayniqsa, jinoyat-protsessual faoliyatda inson huquqlarini himoya qilish alohida ahamiyatga ega, chunki bu jarayonlarda shaxsning erkinligiga, daxlsizligiga va qonuniy manfaatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadigan qarorlar qabul qilinadi. Shu sababli ham davlat tomonidan mazkur jarayonlarda fuqarolarga yetarli darajada huquqiy kafolatlar berilishi zarur. O'zbekiston Respublikasi o'zining konstitutsiyaviy taraqqiyot yo'lida inson huquqlarini ta'minlash borasida bir qator muhim islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Xususan, 2023-yilda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri qabul qilinib, unda inson huquq va erkinliklarini yanada kengroq mustahkamlashga qaratilgan muhim o'zgarishlar amalga oshirildi. Bu o'zgarishlar davlat va jamiyat hayotida fuqarolarning huquqiy maqomini oshirish, sud-huquq tizimini demokratlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlanadir yo'lida muhim qadam bo'ldi. Shu jihatdan olib qaralganda, yangi Konstitutsiyada "Miranda qoidasi" deb ataluvchi prinsipning konstitutsiyaviy darajada mustahkamlangani alohida e'tiborga molik. Konstitutsiyaga kiritilgan ushbu o'zgartirishlar fuqarolarning huquq va erkinliklarini real hayotda amalga oshirish, davlatning huquqiy va demokratik xarakterini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. "Miranda qoidasi"ning konstitutsiyaviy darajada tan olinishi — jinoyat-protsessual tizimning insonparvarlik tamoyillariga moslashuvi va xalqaro standartlarga yaqinlashuvining yorqin dalilidir.

Miranda qoidasi mohiyati va kelib chiqishi. Miranda qoidasi tarixi Ernest Arturo Miranda ismli AQSH fuqarosining nomi bilan bog'liq hisoblanadi. Miranda 1941-yil 9-martda Arizona shtatining Mesa shahrida tug'ilgan ispaniyalik retsidivist. O'z vaqtida uni ota-onasi va o'qituvchilari "tarbiyasi qiyin bola" deb ta'riflagan. Sakkizinchisinfda u kichik jinoyat sodir etgan va to'qqizinchisinfda o'g'irlik uchun hibsga olingan va bir yil davomida Arizona shtatidagi O'g'il bolalar sanoat mакtabiga joylashtirilgan. Ozodlikka chiqqanidan keyin u bir oy o'tib yana yangi jinoyatga qo'l urgan. Mana shunday hayot tarziga ega bo'lган Miranda 1966-yili jinoyat sodir etganlikda gumon qilinib, hibsga olingan va so'roq qilinishdan oldin uning gumondor sifatidagi huquqlari o'qib eshittirilmagan. Miranda o'z huquqlarini bilmagan holda so'roq jarayonida qo'yilayotgan ayblov larga iqrorlik ko'rsatmasini bergen va sudda ushbu ko'rsatmadan isbot sifatida foydalanilgan. Buni noqonuniy ekani uni himoya qilayotgan Alvin Mur ismli 73 yoshli advokat tomonidan aniqlanib, sud jarayonida u himoyasidagi shaxsning huquqlari tushuntirilmagan, shuning uchun ham aybiga iqrorlik ko'rsatmasi hamda qonunbuzarliklar bilan olingan boshqa dalillar sud ishdan olib tashlanishi kerakligini ta'kidlagan. Garchi birinchi instansiya sudi advokat Murning dalillariga ishonmagan bo'lsada, keyinchalik 1966 yil 13 iyunda AQSh Oliy sudi Mirandaning huquqlari buzilgan, deb topgan va undan iqrorlikni olib tashlagan holda ishni qayta ko'rib chiqishga qaror qilgan. Shundan so'ng Amerika politsiyasida so'roqdan oldin hibsga olinganlarning huquqlarini o'qishi to'g'risida majburiy tartib joriy qilinib, mazkur qoida "Miranda qoidasi" sifatida atala boshlangan.[1] Demak,

“Miranda qoidasi”ga ko’ra shaxs ushlangan yoki hibsga olingan vaqtda unga quyidagi huquqlar majburiy tarzda tushuntirilishi kerak:

- sukut saqlash huquqi;
- o‘ziga qarshi guvohlik bermaslik huquqi;
- advokat yordamidan foydalanish huquqi (hatto agar moliyaviy imkoniyati bo‘lmasa ham).

Mazkur qoidaning asosiy maqsadi – tergov organlarining zo‘ravonligi va psixologik bosimini oldini olish, shaxsning o‘z huquqlarini to‘liq anglagan holda qarorlar qabul qilishiga imkon yaratishdir.

Yangi Konstitutsiyada “Miranda qoidasi” institutining ifodalanishi. 2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumi orqali qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri inson huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida muhim yutuqlardan biridir. Ayniqsa, Konstitutsiyaning 28-moddasida mustahkamlangan norma insonning jinoyat-protsessual jarayondagi asosiy huquqlarini kafolatlashda tarixiy ahamiyatga ega. Ushbu modda quyidagicha ifodalangan: “Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o‘zining aybsizligini isbotlashi shart emas va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkin. Hech kim o‘ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emas. Agar shaxsning o‘z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo‘lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emas. Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar o‘ziga nisbatan insoniy muomalada bo‘linishi hamda inson shaxsiga xos bo‘lgan sha’ni va qadr-qimmati hurmat qilinishi huquqiga ega. Shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo‘lishi mumkin emas.” [2]

Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasida belgilangan norma AQSHda paydo bo‘lib rivojlangan “Miranda qoidasi” elementlarning asosiylarini o‘z ichiga oladi. Avvalo, ushlangan yoki hibsga olingan shaxsga uning huquqlari, shu jumladan sukut saqlash va advokat yordami olish huquqlari darhol tushuntirilishi lozimligi qat’iy konstitutsiyaviy talab sifatida ilgari surilmoqda. Bu esa shaxsni protsessual jihatdan himoya qilish, uni noqonuniy bosim va majburiy guvohlik berishga undash holatlaridan asrashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, Konstitutsiyada o‘ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur qilinmaslik huquqining mustahkamlishi demokratik jamiyat uchun juda muhim tamoyildir. Bu prinsip insonning o‘zini oqlash huquqi va aybsizlik prezumpsiysi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, uni e’tiborsiz qoldirish hech qachon mumkin emas. Yangi tahrirdagi asosiy hujjatimizda “Miranda qoidasi” muhrlanishi inson huquqlari himoyasi kafolatini kuchaytiradi, ushlangan shaxsga nisbatan hali aybi isbotlanmasdan “jinoyatchi”, “huquqbuzar” sifatida emas, balki jamiyatning to‘laqonli a’zosi sifatidagi qadrini mustahkamlashga huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi.[3]

Avvalgi tahrirdagi Konstitutsiyada bu kabi aniq va ravshan normalar bo‘limganini inobatga olsak, yangi Konstitutsiyada ushbu huquqlarning ifodalanishi inson huquqlari sohasidagi muhim yutuqdir. Endilikda bu talablar nafaqat Jinoyat-protsessual kodeksida, balki eng oliv huquqiy hujjat — Konstitutsiya darajasida kafolatlangan bo‘lib, amaldagi qonunchilikka bevosita ta’sir etuvchi va uni yo‘naltiruvchi kuchga ega. Shuningdek, bu o‘zgarishlar xalqaro standartlarga, xususan BMTning Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktiga, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga va Yevropa inson huquqlari konvensiyasiga ham hamohang hisoblanadi. Konstitutsiyaning 28-moddasida “Miranda qoidasi” prinsiplarining konstitutsiyaviy darajada mustahkamlab qo‘yilishi O‘zbekistonda inson huquqlarining ustuvorligini ta’minlash yo‘lidagi muhim qadam bo‘lib, jinoyat-protsessual islohotlarning yanada chuqurlashishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, inson huquqlarini ta’minlash sohasidagi konstitutsiyaviy normalarni to‘liq va atroficha o‘rganish, ongu shuurga singdirib olish — fuqarolarda huquqiy immunitetning mustahkamlanishiga poydevor bo‘ladi. Huquq-tartibot idoralari xodimlarining ham gumondorlarni qonunga muvofiq so‘roq qilish va ularning huquqlarini protsessual tartibda to‘liq ta’minlashga qaratilgan mas’uliyatini oshiradi. Ayniqsa, noqonuniy yoki zo‘ravon so‘roq usullaridan foydalanishning oldini oladi va adolatli sudlovlarni rag‘batlantiradi.

Xalqaro tajriba va qiyosiy tahlil: Bugungi kunda “Miranda qoidasi” inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlar hamda ko‘plab davlatlar konstitutsiyasi va qonunlariga umume’tirof etilgan norma sifatida kirib kelgan. Masalan, Fransiya qonunchiligiga ko‘ra, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan hibsga olinib, so‘roq qilinayotgan shaxsga hibsga olishning maksimal muddati, qarindoshlari yoki ish beruvchini hibsga olingani haqida xabardor qilish huquqi haqida ma’lumot berilishi zarur.

Avstraliyada “Miranda qoidasi” mahalliy tilda “Jim turish huquqi” deb ham ataladi. Unga ko‘ra, gumonlanuvchiga so‘roqdan avval “Agar xohlamasangiz, biror harakat qilishingiz yoki aytishingiz shart emas. Har qanday so‘zlariningiz yoki harakatlaringiz dalil sifatida ishlatalishi mumkin” deya ma’lumot beriladi va “Hamma narsani tushundingizmi” deb so‘raladi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, odatda, ayblanuvchilarining atigi 4-9 foizi sukut saqlash huquqidan foydalanadi.[4]

Yevropa Inson huquqlari konvensiyasiga ko‘ra, har bir shaxsga o‘ziga qarshi guvohlik bermaslik va himoyadan foydalanish huquqlari kafolatlanadi.[5] Misol uchun, Germaniyada tergov jarayonida shaxsga huquqlari aniq shaklda tushuntiriladi, aks holda tergov natijalari haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Rossiya Federatsiyasida agar shaxs gumon qilinuvchi sifatida jalb qilingan bo‘lsa, u bu haqda yozma ravishda xabardor qilinishi va xabarnomada ushbu shaxs gumon qilinayotgan aniq jinoyatning tavsifi bo‘lishi hamda xabarnoma

topshirayotganda tergovchi gumon qilinuvchiga uning ushbu moddada ko'rsatilgan huquqlarini tushuntirishi shart. Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksining 46-moddasiga ko'ra gumonlanuvchida advokatga bo'lgan huquqni va guvohlik berishni rad yetish huquqi mavjud. Mazkur huquqiy me'yorlarni ma'lum darajada «Miranda qoidasi»ning muqobili, deb hisoblash mumkin bo'lsada amalda, gumonlanuvchiga huquqlari bo'yicha tushuncha berish so'roq bayonnomasini imzolash vaqtiga to'g'ri keladi.[6]

Demak, xulosa o'rnila shuni ta'kidlashimiz mumkinki, "Miranda qoidasi"ning konstitutsiyamizga kiritilishi kabi bunday kafolatlar sud-tergov jarayonlarida huquqni muhofaza qiluvchi organlarni noqonuniy harakatlardan tiyib turishga, ular tomonidan fuqarolarning shaxsiy hayot daxlsizligiga oid huquqlarining o'zboshimchalik bilan buzilishiga yo'l qo'ymaslikka, shaxsning yashash joyiga asossiz kirish, uy-joy daxlsizligini buzish, fuqarolarni mulkidan asossiz mahrum etilishi holatlarini bartaraf etishga xizmat qiladi. Eng muhimi, bu konstitutsiyaviy yangilanishlar orqali tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov bosqichlarida shaxs huquqlariga oid tergov xatolariga yo'l qo'yilmasligi hamda fuqarolarimizning sudlarga bo'lgan qat'iy ishonchini oshirishga erishiladi.[7] Bosh qonunimizga kiritilayotgan yangi kafolatlar butun jahon e'tirof etgan "oltin qoidalar" bo'lib, ularning konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi fuqarolarimizning huquq va erkinliklari himoya qilinishining yangi va ishonchli mexanizmini ishga soladi. Shuningdek, bu progressiv qoidalar yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda qat'iylashtirilishi fuqarolarimizni asossiz va qonunga xilof jinoiy ta'qibdan himoya qiladi, tergov organlari tomonidan jinoyatda ayblanayotgan shaxslar huquqlari buzilishining oldini oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mamatqulov Davlatjon Maxamatjonovich. "Miranda qoidasi" tarixi, mazmuni va uni konstitutsiyamizga kiritilish zarurati.
https://aza.uz/uz/posts/miranda-qoidasi-tarixi-mazmuni-va-uni-konstituciymizga-kiritilish-zarurati_430614
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
3. Xusanova Muxtabar Akbarovna. Miranda qoidasi inson huquq va manfaatlarining ishonchli himoyasi. <https://parliament.gov.uz/articles/1675>
4. J.Hafizullayev. Miranda qoidasi: tarixi, uning asosiy maqsadi, muammo va kamchiliklari.
<https://cyberleninka.ru/article/n/miranda-qoidasi-tarixi-uning-asosiy-maqsadi-va-muammo-va-kamchiliklar/viewer>
5. Yevropa Inson huquqlari Konvensiyasi, 1950.
6. Mamatqulov Davlatjon Maxamatjonovich. "Miranda qoidasi" tarixi, mazmuni va uni konstitutsiyamizga kiritilish zarurati.

https://uza.uz/uz/posts/miranda-qoidasi-tarixi-mazmuni-va-uni-konstituciyamizga-kiritilish-zarurati_430614

7. Surayyo Rahmonova. “Miranda qoidasi” va “Xabeas Korpus” instituti – huquqlarimizning muhim konstitutsiyaviy kafolati.

<https://yuz.uz/uz/news/miranda-qoidasi-va-xabeas-korpus-instituti-huquqlarimizning-muhim-konstitutsiyaviy-kafolati>